



**TALIM- TARBIYA JARAYONIDA YOSHLARNING HUQUQIY
SAVODXONLIGINI OSHIRISH UCHUN QO`LLANILGAN METODIK
ASOSLAR**

Toshkenboyev Sarvarbek Qosimjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti 2- bosqich magistranti

sarvartoshkenboyev2@gmail.com +998934147868

Annotatsiya: Oliy ta'lim muassasalari talabalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatni shakllantirishning ahamiyati shaxsiy moliyaviy va huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy ong va iqtisodiy faoliyatda huquqiy mas'uliyat, korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish, xalqaro me'yor va standartlarga moslashishdan iborat. Shuningdek Oliy ta'lim muassasalari talabalarida iqtisodiy-huquqiy madaniyatga ega bo'lsa, ular nafaqat shaxsiy moliyaviy va huquqiy barqarorlikka erishadi, balki jamiyatda qonuniylik, mas'uliyat va samarali iqtisodiy faoliyatni targ'ib qiluvchi faol fuqaro bo'lib yetishadi.

Kalit so'zlar: Talim- tarbiya, axborot texnologiyalari, xalqaro me'yor va standartlar, ta'lim tizimi, mobil ilovalar, huquqiy savodxonlig, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, konsepsiya, tadqiqot metodologiyasi.

Kirish. Bugungi kunda global raqamlashtirish jarayonlari jamiyatning barcha sohalarida kabi ta'lim tizimiga ham mustahkam ta'sir o'tkazmoqda. Raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi ta'lim jarayonini samaralilashtirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Huquqiy madaniyat – bu fuqarolarning qonunlarga munosabati, huquqiy bilimlari, huquqiy ong va huquqiy harakatlarini o'z ichiga olgan murakkab ijtimoiy fenomen bo'lib, demokratik jamiyat barpo etishda muhim omil hisoblanadi. Talabalar – jamiyatning faol, bilimli va kelajakda jamiyatni boshqaradigan avlodidir. Shu boisdan, ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Raqamlashtirish sharoitida an'anaviy ta'lim usullaridan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, huquqiy bilimlarni samarali tarzda yetkazish va ularni amalda qo'llash imkoniyatlari kengaymoqda. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar va raqamlashtirish jarayonlari talabalarning huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari yordamida ta'limni raqamlashtirish, elektron ta'lim platformalari, onlayn kurslar va mobil ilovalar orqali huquqiy tarbiyani samarali amalga oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Raqamlashtirish jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta'lim va yoshlar madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan, talabalar orasida huquqiy madaniyatni rivojlantirish muhim ilmiy va amaliy masala sifatida ko'riladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish sharoitida talabalar huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv ta'lim metodlarini keng

qo'llash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida huquqiy bilimlarni doimiy yangilab borish zarur. Shu bilan birga, huquqiy madaniyatni shakllantirishda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi muhimdir. Pedagogik va huquqshunoslik sohasidagi ilg'or nazariy yondashuvlar o'rganildi. Xususan, huquqiy madaniyatni rivojlantirishda interaktiv va raqamli o'quv usullarining o'rni, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi, shuningdek, yoshlar orasida huquqiy ongni shakllantirish konsepsiyalari konseptual darajada tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasining muhim qismi sifatida kompleks tahliliy metod qo'llanilib, mavzuga doir ilmiy manbalar sintez qilindi, mavjud nazariyalar va pedagogik yondashuvlar o'rtasida bog'lanishlar aniqlanib, ularning raqamli ta'lim sharoitida qo'llanilish imkoniyatlari o'rganildi. Shu yo'l bilan huquqiy madaniyatni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim platformalarining o'rni nazariy jihatdan asoslandi. Tadqiqot jarayonida ilmiy tahlil va sintez usullari yordamida mavzu yuzasidan mavjud nazariy bilimlar integratsiyalashdi va yangi konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi. Jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan islohot va tendentsiyalar davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar, qarorlar, farmonlar va boshqa normativ-huquqiy xujjatlar orqali jamiyat hayotiga kiritiladi. Shuningdek, normativ huquqiy hujjatlar to'liq amalga oshirilgan taqdirdagina islohotlar o'z samarasini beradi. Jamiyat taraqqiyoti davlatdagi huquqiy ong va madaniyatning yuqori darajada bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy bo'lgi bo'lgan huquqiy madaniyatning negizini huquqiy ong, huquqiy tafakkur tashkil etishi bilan belgilanadi. Shuningdek, huquqiy ong fuqaroning jamiyatdagi o'rnini belgilab, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa, huquqiy normalarda belgilangan talablarning bajarilishi ham shunchalik to'liq va aniq bo'lishini naxarda tutadi Binobarin, jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan talabalarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga bog'liq. Chunki huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati yuqori bo'lgan fuqarogina erkin iqtisodiy, demokratik va ma'naviy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'la oladi. Shuning uchun ham bugungi kunda har bir talabaning huquqiy madaniyatini, huquqiy ongini, bilimini davr talabidan kelib chiqib oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsning huquqiy madaniyati huquqiy ongni shakllantirishdan va uning ijtimoiy ahamiyatli shaxs xulq-atvorini huquqiy tartibga solishdan iborat bo'lgan funktsiyasidan boshlanadi. Huquqiy madaniyat, eng avvalo, ma'lum darajadagi ta'limni, ya'ni to'plangan bilimlarni, ma'lumotlarni, g'oyalarni o'z ichiga oladi, lekin u faqat shu bilan bog'liq emas. Shuningdek, o'zlashtirilgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llash va bu ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, o'quvchilarni uzluksiz kasbiy o'sishga tayyorlash, o'z kuchiga tayanishga o'rgatish, o'z taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish zarurligini tushuntirish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Bunday holda, o'qituvchining faoliyati o'qitish usullari va shakllari orqali o'quv jarayonini tashkil etishning ta'lim imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonining samaradorligini

ta'minlashning predmeti sifatida turli yondashuvlarga asoslanadi. Ta'lim jarayoni boshqa ijtimoiy voqeliklardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Demak, ta'lim jarayonining samaradorligi ushbu jarayon ishtirokchilarining faoliyatini tashkil etishda qo'llaniladigan usul va yondashuvlarning xususiyatlariga bog'liq. Ta'lim jarayoni tashkilotchilarining faoliyati ijtimoiypedagogik faoliyat sifatida qaralib, uning maqsadi o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy talablar asosida odamlarga ta'lim berish va tarbiyalashdir. Talabalarning huquqiy madaniyatini baxolaganda talaba xuquq ko'rsatmalariga rioya etayotganligini aniqlash xam muhimdir.

Xulosa

Xulosa o'rinda umumiy prinsiplar va istiqbollar. Oliy ta'limda huquqiy va siyosiy madaniyatni yuksaltirish integrativ, kompetensiyaviy va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv talab qiladi. Talabalarda daliliy fikrlash, normativga tayangan talqin, etik muloqot, raqamli fuqarolik va ijtimoiy ishtirok kompetensiyalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish orqali ta'limning ijtimoiy ta'siri kuchayadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish demokratik madaniyat kompetensiyalari modeli, global kompetensiya, raqamli fuqarolik konsepsiyalari, akademik halollik standarti va servis-o'qish amaliyoti bilan uyg'un kechishi lozim. Universitet miqyosida "butun institut yondashuvi"ni yo'lga qo'yish, o'qituvchi fasilitatsiya salohiyatini oshirish, baholashning ko'pko'rsatkichli tizimini joriy etish va talabalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uzoq muddatli ijtimoiy kapital, huquqiy xulq va demokratik ishtirokni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2023, 208 bet. (9–12; 65–70-betlar).
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" Qonuni (O'RQ-637, 23.09.2020). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2020, 64 bet. (5–9-betlar).
3. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonuni (O'RQ-406, 14.09.2016). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2016, 48 bet. (10–18-betlar).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmon. Toshkent: Prezident Administratsiyasi nashriyoti, 2022, 120 bet. (25–33-betlar).
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yilning 28 dekabrtdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.uza.uz.
6. Library note (House of Lords)// Debate on 5 October 2010: The Charitable Sector and Civil Society - "The role of the charitable sector in strengthening civil society"